


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*70230301 – Noshirlik ishi va muharrirlik magistratura
mutaxassisligining
MALAKA TALABI*

Toshkent – 2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil « 1 » avgust dagi 277 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga va Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining kasbiy standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarning asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarning tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatlarning sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obyektlari	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari	4
1.2.4.	Kasbiy vazifalar	5
2.	Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar.....	10
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	11
4.	Fanlar katologining tuzilishi	12
	Bibliografik ma'lumotlar	13
	Kelishuv varag'i	14

1. Umumiy tavsifi

70230301 – Noshirlik ishi va muharrirlik – mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 70230301 – Noshirlik ishi va muharrirlik mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

mutaxassislikning o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlar;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. Kasbiy faoliyatlarning sohalari

70230601 - Noshirlik ishi va muharrirlik - nashriyotlar va matbaa korxonalar, nashriyot-matbaa majmualari, internet nashrlari uchun mutaxassislik bo'lib, barcha ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, nashriyot-matbaa konsernlari va bosmaxonalarda muharrirlik faoliyati bilan shug'ullanish, noshirlik mahsulotini bosma va raqamli shaklda chiqarish va tarqatish, noshirlik ishi sohasidagi texnologiya, texnik va dasturiy mahsulotlar, iqtisodiyot, boshqaruv va marketing, ilmiy tadqiqot, faoliyati axborot xizmati ko'rsatish bilan bog'liq tashkilotlarda ish olib borish kabi majmualarni qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

70230301 – Noshirlik ishi va muharrirlik mutaxassisligi bo'yicha bitiruvchilar oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli

boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi.

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati;

O‘zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi;
“O‘zbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyi;

O‘zMTRK tarkibiga kiruvchi kanallarda noshirlik va muharrirlik hamda jurnalistik faoliyat;

Milliy media birlashmasi tasarrufidagi teleradio kanallarida noshirlik va muharrirlik jurnalistik faoliyat;

ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, davlat va nodavlat organlarida noshirlik va muharrirlik hamda jurnalistik faoliyat;

axborot va reklama agentliklarida noshirlik va muharrirlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish;

internet tarmoqlari, saytlar, ijtimoiy tarmoqlarda noshirlik va muharrirlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish;

nashriyot-matbaa konsern va bosmaxonalarda faoliyatni tashkil etish va boshqarish.

ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, davlat va nodavlat organlarida noshirlik va muharrirlik faoliyati,

axborot va reklama agentliklarida noshirlik va muharrirlik faoliyati;

internet saytlar hamda ijtimoiy tarmoqlarda noshirlik va muharrirlik faoliyati;

davlat boshqaruvi organlari, vazirliklar, korxonalar va idoralar matbuot markazlarining noshirlik va muharrirlik faoliyati;

nashriyot markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari;

matbuot nashrlari tahririyatlari;

noshirlik mahsulotini bosma va raqamli shaklda chiqarish va tarqatish, noshirlik ishi sohasidagi texnologiya, texnik va dasturiy mahsulotlar, iqtisodiyot, boshqaruv va marketing, ilmiy tadqiqot, faoliyati axborot xizmati ko‘rsatish bilan bog‘liq tashkilotlarda ish olib borish huquqiga ega bo‘ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- Ilmiy tadqiqot faoliyat;
- pedagogik faoliyat;
- noshirlik ishi va muharrirlik faoliyat;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati.

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

70230301 – Noshirlik ishi va muharrirlik mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

mutaxassislikka mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar va ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilishi;

namunaviy metodikalar va boshqalar bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazishi va ularning natijalarini tahlil qilish;

ilmiy va tushuntirish xatlarini ishlab chiqishi;

o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqishi, referat va bibliografiyalarni tuzishi;

ilmiy seminarlar tahliliy jarayonida ishtirok etishi;

ilmiy mavzularga oid jurnallarga maqolalar tayyorlash;

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

milliy ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini og'zaki va yozma bayon etishi, milliy g'oyaning nazariy asoslarni anglagan holda “Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish” bosh g'oyasining mohiyatini hamda uning asosiy g'oyalar bilan mutanosibli va farqini bilishi;

tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olishi;

shaxsning inson, jamiyat, atrof muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olishi;

yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;

o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;

o'z faoliyatida me'yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;

fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat shakllangan bo'lishi;

kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;

ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarini bajarish;

ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta'lim yo'nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;

ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan malumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlashi;

patent olish uchun ish me'yoriy hujjatlar tayyorlay olishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi lozim.

turli sohalardagi axborot kommunikativ faoliyatda bilim va malakalarni tizimlashtirish, integrasiyalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish, ulardan lingvistika, lingvodidaktika fanlari sohasidagi muammolarni yechishda samarali foydalanish;

milliy va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy, ta'limga oid, ijodiy, reklama loyihalarini ishlab chiqish;

Pedagogik faoliyatida:

o'quv fanlarini o'qitish metodikasini o'zlashtirish va amalda qo'llash;

elektron va distansion o'qitish metodlarini egallash va pedagogik faoliyatida qo'llash;

oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli metodlar va usullar, vositalarni egallagan holda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

uzluksiz ta'lim tizimining DTS, malaka talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish, loyihalash, modellashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishi;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish;

Noshirlik ishi va muharrirlik faoliyat:

kasbiy faoliyatni rejalashtirish;

noshirlik ishi tamoyillari va mezonlariga rioya etish, zaruriy materiallarini tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni hisobga olish, noshirlik ishiga oid materiallarni modellashtirish malakasiga ega bo‘lish, ijodiy faoliyatni muvofiqlashtiradigan uzluksiz kompleks jarayonini rejalashtirish va tashkillashtirish;

noshirlik va muharrirlik faoliyat yuritishda zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashi;

nashriyot va tahrir sohasida badiiy va ilmiy asarlar, sohaga oid risola va monografiyalar bo‘yicha musahhih va muharrirlik faoliyatini amalga oshirish;

noshirlik muassasalarida tahrirchi va adabiy xodim bo‘lib ishlash;

mualliflar va qo‘lyozmalar bilan ishlash, ularni tahrirlash, nashriyotlarning turli bo‘limlari (logistika, ishlab chiqarish, marketing, tarqatish), kitoblar va seriyalarni dastlabki materialni qayta ko‘rib chiqishdan tortib, nashrga tayyorlash malakasiga ega bo‘lish;

xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo‘lishi;

mas’ul muharrir sifatida internet-portalda yoki bosma nashrda yoxud axborot agentligi lentasidagi ma’lumotlarni joylashtirish, fakturani, ya’ni nashr konsepsiyasining g‘oyasiga materiallar va mavzuning mosligini tekshirish, ta’sirchan sarlavhalarni o‘ylab topish, ijodiy guruh ishini muvofiqlashtirish, nashrlarning tematik rejasini tayyorlash, sinchiklab qilingan tahrirdan so‘ng materialni matbuotda yoritita olish malakasiga ega bo‘lish;

kopirayter (reklama matnlarini yozadigan mutaxassis) sifatida reklama qilingan mahsulotni sotib olish istagini paydo qila oladigan matn yozish malakasiga ega bo‘lish;

musahhih sifatida matnni asl nusxasi bilan solishtirish va matn teruvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan imloviy va ishoraviy xatolarini tuzatish, o‘rnatilgan texnik qoidalarning buzilishini bartaraf etish, rasmlar, sxemalar, diagrammalar ostidagi yozuvlarni, satrdagi harflar orasidagi masofaning to‘g‘ri bo‘lishini tekshirish malakasiga ega bo‘lish;

media-menenjer sifatida turli mass-medialarini boshqarish, ularning rivojlanish strategiyasini belgilash, media-loyihalarni boshqarish va turli ommaviy axborot vositalarida media-mahsulotlarni yaratish, media-rejalashtirishni amalga oshirish, brend strategiyasini va bozorda OAV marketingini belgilash, reklama byudjetlarini tuzish, reklama beruvchilar uchun foydali takliflarni ishlab chiqish va boshqa iqtisodiy masalalar bilan shug‘ullanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

mediabayer sifatida nashriyot uylari bilan shartnoma tuzish va uning to‘liq bajarilishini nazorat qilish: kafolat xatlaridan tortib, maketni yetkazib berish va to‘lovlar, schyot-fakturalarni olish, qabul qilish dalolatnomalari va sinov nusxalari (e’lon qilingan reklama nashrlari nusxalari) bilan shug‘ullanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

media-dizayner sifatida media-mahsulotni loyihalashni amalga oshirish, buyurtmachilarning xohishiga ko‘ra dizayn-konsepsiyalar ishlab chiqish, tijorat

takliflarini badiiy bezash (loyihalarni taqdimot qilish), nostandart reklama konstruksiyalarni 3D-vizualizatsiya qilish, turli formatdagi tashqi reklama uchun maketlarni yaratish, fayllarni nashrga tayyorlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

AdobePhotoshop — AdobeIllustrator, AdobePremier, AdobeAfterEffects, AdobeInDesign, CorelDraw, PowerPointB, 3D-Ma, AdobePremier, AdobeAfterEffectslarda ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

har qanday multimedia mahsuloti xususida, dizayn, video, raqamli, zamonaviy multimedia tendensiyalari va reklama sohasidagi texnik yangiliklardan xabardor bo‘lish;

o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

axborot, bilim, ma’lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo‘lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;

bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

kundalik, haftalik va oylik nashrlar materiallari hamda turli publitsistik matnlar ustida ishlash va qayta ishlash, baholashda ilg‘or zamonaviy usul va uslublarni takomillashtirish va tatbiq etish;

turli tildagi OAV materiallarini tarjima qilish va ularni tahrir etish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O‘zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;

dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lishi, mustaqil tahlil qila olish, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilish;

Vatan tarixini bilishi, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

tegishli bakalavr yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;

pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

ishlab chiqarish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalana bilish;

mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko‘nikmalarini hosil qilishi;

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o‘quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko‘nikmalarini shakllantirishi;

o‘quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta‘minlashni tashkil etish o‘quvi va ko‘nikmalarini hosil qilishi lozim.

noshirlik ishi va muharrirlik ta‘lim sohasidagi magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni, uquv va ko‘nikmalarni shakllantirishi;

xizmat ko‘rsatish ta‘lim sohasidagi magistratura mutaxassisligi bo‘yicha bilimlar bazasini yaratish, jamlash va ulardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishi;

magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko‘zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish va tizimli yondashish borasidagi ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko‘nikmalarni ta‘minlashi kerak.

ilmiy faoliyat bloki ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o‘zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta‘lim muassasalarida jurnalistika va axborot sohasida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi;

tadqiqot masalalariga oid axborotlarni izlash, ularni tahlil qilish va tizimlashtirish, umumlashtirish, haqqoniy axborot manbalari va yuqori mavqeli ilmiy jamiyatlar katalogini tuzishga o‘rgatishga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

fanlar mutaxassislikning nazariy asoslari va innovatsion yondashuvlarini chuqur bilish, nazariya va amaliyot haqida bilim berishi borasida – tushunish, baholash va tegishli xulosa va tavsiyalar chiqara olishni ta‘minlashi;

xalqaro axborot muhitida davlatimiz milliy manfaatlarini aks ettiradigan ilmiy asosli ma‘lumotlarni chuqur tahlil qilish va baholashga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

gumanitar fanlardagi innovatsion yondashuvlarni xalqaro tajribalarini chuqur bilish va tushunish, baholash va tegishli xulosa va tavsiyalar berish;

O‘zbekistonda va xorijda mustaqil tadqiqotlarni olib borish, chet el muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan o‘zaro aloqalar o‘rnatish va davlatimiz manfaatlariga javob beradigan ilmiy hamkorlikni amalga oshirishda ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Ilmiy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli ilmiy-tadqiqot va amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Mutaxassislik bo‘yicha quyidagi amaliyot o‘tkaziladi:

1. Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti
2. Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	1260	42	
1.01	MITM1106	Mediada ilmiy tadqiqot metodologiyasi	180	6	1
1.02	JZTT1106	Jurnalistikaning zamonaviy taraqqiyot tendensiyalari	180	6	1
1.03	AXJN1106	Axboriy jamiyat nazariyalari	180	6	1
1.04	MFOM1206	Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi	180	6	2
1.05	NTEB1206	Nashriyot ishini tashkil etish va boshqarish	180	6	2
1.06	NJAB1206	Nashr jarayonining asosiy bosqichlari	180	6	2
1.07	AATT1306	Adabiyot ayrim turlari tahriri	180	6	3
		Tanlov fanlar	540	18	1,2,3
		Kvalifikatsiya	Noshir, muharrir (pedagog- tadqiqotchi)		
		JAMI	1 800	60	
		Ilmiy faoliyat	1800	60	
		Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish	1260	42	1,2,3,4
		Ilmiy faoliyat: Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti	540	18	3,4
		JAMI	1 800	60	
		HAMMASI	3 600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Avantitul, almanax, annotatsiya, axborot – kommunikatsion boshqaruv, analiz, anketa, antrefile, afisha, banal, bingo-karta, bibliografik havola, bibliografik ro'yxat, broshyura, buklet, byulleteng', VI'-jurnal, geosiyosat, grafomaniya, dalillash, de-fakto, de-yure, didaktika, drayv-taym, bestseller, virtual dunyo, gonorar, axborot globallashuvi, jurnalistikada deontologiya, jurnalistik jingoizm, ISBN (International Standard Book Number), JCR (Journal Citation Re'orts–Science Edition), impakt-faktor, indekslar, imijmeyker, interfaol jurnalistika, indeksatsion raqamlash, kegl, kolontitul, korrektura, kompozitsiya, kreativ, konsensus, kopirayt, marketing kommunikatsiyasi, marginaliya, monografiya, musahhah, muqovalash, media-biznes, mediamatn, muallif varag'i, muallif huquqi, noshir, noshirlik ishi bo'yicha mutaxassis, nazariya, nashriyot moliya rejasi, referat, plyuralizm, postindustrial jamiyat, press-reviz, patent, tiraj, taqriz, tahririyat xarajatlari, filigrang, format, hammualliflik, havola, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, virtual elektron bilim manbalari.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari
ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Rektor  Sherzodxon Qudratxo'ja

2024-yil « ____ » _____


M.O'.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlar markazi
Direktor _____ M.Boltabayev

2024-yil « ____ » _____

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
Direktor  A.Xodjayev

2024-yil « ____ » _____

M.O'.

O'zbekiston Milliy universiteti
Rektor  I.Madjidov

2024-yil « ____ » _____

M.O'.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Rektor  I.To'xtasinov

2024-yil « ____ » _____

O'zbekiston Milliy axborot agentligi
Bosh direktor  A.Ko'chimov


2024-yil « ____ » _____

M.O'.

O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi
Rais  X.Salimov


2024-yil « ____ » _____

M.O'.

O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi
Rais  A.Jo'raboyev

2024-yil « ____ » _____

M.O'.

O'zbekiston milliy media birlashmasi
Bosh direktori  A.Abotalipov

2024-yil « ____ » _____

M.O'.